

## KITOB MUTOLASI INSON UMRINING NURIDIR.

Saydikasimova Feruza Saydijamilovna

*ALFRAGANUS UNIVERSITY,*

*Pedagogika va Psixologiya*

*Fakulteti 2-kurs talabasi*

Annotatsiya. Maqolaning asosiy maqsadi, insonlar hayotida kitobning o`rni qanchalik muhim ahamiyatga egaligi, ma`naviy ozuqa beruvchi vosita ekanligi, kitob bilan do`stlashish va kitobga bo`lgan munosabat haqida.

### KIRISH.

Kitob zamonlar dengizida sayohat qilayotgan, o`zining qimmatbaho boyliklarini avloddan avlodga olib boruvchi hikmat kemasiga o`xshaydi go`yo. Nodonlar-la o`tirib turmoqdan kitob bilan yog`iz qolmoq yaxshidir. Isaak Barrou

Inson umri davomida yaxshi yashashni, to`kis hayot kechirishni, har bir orzulari amalga oshishini istaydi. Buning uchun faqat moddiy ta`minotning o`zi yetarli emas. Inson ma`naviy, dunyoviy, diniy, zamobaviy, madaniy, tarbiyaviy bilim va ko`nikmalarga ega bo`lsa, u har qanday ishni ko`zini va ildizini topa biladi.

Inson hayotida vaqt, tarbiya va mutolaa muhim o`rin tutadi; faqat tarbiya bo`lsa-yu, bilim yetarli bo`lmasa, bor imkoniyatlarni ham qo`ldan berib qo`yishi aniq.

Vaqtни to`g`ri taqsimlab, tarbiya yo`nalishini to`g`ri olib borilsa va insonga yoshligidanoq kitob mutolaasiga ko`nikma hosil qilish eng samarali natijalarni beradi.

Vaqtни bekorchi narsalar(hozirgi zamonda turli garjetlar, besamar o`yinlar, ijtimoiy tarmoqlar), dangasa, hafsalasiz insonlar bilan vaqni o`tkazish ma`naviy qashoqlikka olib keladi.

### ASOSIY QISM.

Farzand tarbiyasida biz kattalar, oppoq qog`ozdek pok ongini yaxshiliklar bilan boyitmog`imiz kerak. Ularda kitobga mehr berishni shakllantirish; ya`ni ularning yoshiga mos turli qiziqarli ertak, rasmlı kitoblarni o`qib berish. Keyin sekin asta yoshga nisbatan moslangan kitoblarni sovg`a qilish, ular bilan birgalikda mutolaa qilish, mutolaaga qiziqishini kuchaytirish yaxshi samara beradi.

Ular bilan birga kitob dunyosiga, kutubxona, kitob yarmarkali, kitob do`konlariga sayohatga olib borish eng zo`r sayohatdir. Farzandlarning bafaqat farzandlarning balki kattalarning ham tasavvur olami, rangin dunyo kabi kebgayadi, huddi kamalakdek jilovlanadi va kitobga bo`lgan mehr o`z o`zidan paydo bo`la boshlaydi.

Kitob yig`ish yaxshi ishdır , ularni o`qimoq esa foydalidir. Georg Lixtenberg Yurtboshimiz, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 12 yanvarda “Kitob mutolaasi va Kitobxonlik madaniyatini amalga oshirishga qaratilgan” farmoyish e`lon qilgani ham bejiz emas. Bu tashabbusda yoshlarni kamoloti uchun, kuchli bilim egasi bo`lish, kitobxonlik darajasini oshirishga , turli mazmun mohiyatga

ega bo`lgan kitob nashrlaini amalga oshirish, tafakkurni teranlashtiruvchi asarlar mutolaasiga chorlash, mustaqil fikrga ega bo`lishga chorlaydi. Shunday tadbirlardan yana biri bu 5 tashabbusdir, bu yoshlarni qo`llab quvvatlovchi muhim omildir. “Yoshlar ma`naviyatini yuksaltirishga , kitobxonlikni” rivojlantirishga katta hissa qo`shishda dasturi amal bo`lib xizmat qilmoqda.

Kitob – hayotning eng olis va qorong`u yo`llariga nur baxsh etuvchi afsonaviy chiroqdir. Hoji Baktosh Vali Kitob varaqlarini asta varaqlab uning hidini his qilish, nimalar yozilganiga qiziqish, zudlik bilan mutolaaga kirishish ishtiyoqi, har bir yozilgan misralardan, iqtiboslardan ta`sirlanish, qahramonlar bilan tanishuv va ular bilan birga yashab ko`rish, ularning dunyosida birga bo`lish naqadar zavqli holat emasmi.

Inson tafakkurini yuksaltiruvchi kuch bu – kitob mutolaasidir.

Dunyo tamaddunida ham, bilim olish kitob o`qish doim o`z foydasini bergani, hozirgi kungacha o`z isbotini topib kelmoqda. Kitob mutolaasini kichik yoshdanoq o`rgatish ayni mudaodir.

Kitoblar - biz qo`limizda ko`tarib yuadirgan noyob sehrdir.  
Stefan King

Afsuski ko`pchilik shu qo`lidagi sehrdan foydalanishni bilmaydi, kitoblarini mutolaa qilmaydi va shunday ajoyib boylikda mahrum bo`layotganini his qilmaydi.

### **XULOSA.**

Hayot juda qisqa, vaqt esa shamoldek tez uchib ketuvchidir. Shunday ekan inson imkoni borida, barcha o`zi uchun foydali samarali omillarda foydalanib qolishi kerak.

Kitob mutolaasi inson ruhiyatini tozalaydi – har qanday vaziyatdan oqilona chiqib keta oaldigan mavqega olib chiquvchi vositadir. Kitobni har qanday holatda, har qanday vaziyatda mutolaa qilish mumkin(o`tirib, tabiat qo`nida sayr qilib, bir finjon qahva va shokolad bilan, do`stlar davrasida, yomg`irli, har qanday havodada va h.k).Inson qancha ko`p kitob o`qisa o`z-o`zi bilan tenglashadi, tafakkuri yuksaladi, fikrlari teranlashadi, dunyoqarashi kengayadi, imlo xatolarini tez anglay oladi, hayot yo`llarini yorituvchi nur bo`lib xizmat qiladi.

Shunday ekan bunday imkoniyatdan foydalanishda qanday to`siq yo`q bo`lsa nega kitob mutolaa qilmasligimiz kerak. Hech bir iqtibos bekorga aytilmagan, har birida olam olam ma`no mujassam. Kitob men uchun butun dunyoga yetajak ulkan qirollikdir. Shekspir Kitob - ovozsiz muallimdir.  
Peter Gille

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. Usmonov Sh. I. Ilm dargohiga bir nazar - 2019.
2. Yuldosheva S. Ktob mutolaasini shakllantirishda kutubxonachilik faoliyati - 2019.
3. Yuldosheva S. Kitob ko`ngil chirog`I - 2020.